

O'SMIR YOSHLI BOLALAR ZAMONAVIY KO'YLAGINI ISHLAB CHIQUARISHGA  
QO'YILADIGAN TALABLARNI SHAKLLANTIRISH

Inoyatova M, J. Hayitaliyev, Qayumova M

[inoyatovamafatuna1550@gmail.com](mailto:inoyatovamafatuna1550@gmail.com)

tel: 99897255-15-50

### Kirish

Jahonda va O'zbekistonning ichki bozorlarida tabiiy paxta tolali tayyor kiyim-kechak turlari kengayib bormoqda. Tabiiy tolali to'qimachilik gazlamalarining arzonligi, yengil va qulayligi, shuningdek gigroskopiklik xususiyatlari yuqori bo'lganligi uchun xalq extiyojini qondirib kelmoqda. Shu kunga qadar ko'ylakli gazlamalarning tarkibida paxta+lavsan, paxta+sintetika tolalari bo'lganligi sababli havoni yomon o'tkazishi, issiq ob-havo ta'sirida turli teri tannosil kasalliklarining yuzaga kelishiga olib kelgan.

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, tarmoqniboshqarishni tashkil etish, resurs va ishlab chiqarish quvvatlarining taqsimlanishi, kadrlar malakasining yuqori emasligi bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi paxta va ipak xomashyosini yetishtirishning past rentabelligiga va uni qayta ishlashga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda mazkur sohani yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar izchil ro'yobga chiqarilmoqda. Xususan, O'zbekistonda tikuvchilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlangan [1;5-7-b].

*Annotasiya. Maqolada to'quvchilik sanoati korxonalari tikuvchilik korxonalariga turli xil ko'rinishdagi kiyim – kechaklar tikish uchun har xil turdagi, o'lchamdagi gazlamalarhaqida ma'lumot keltirilgan. Tikuvchilik sanoati aholi va xalq xo'jaligini barcha tarmoqlari uchun mavsumiy, zamonaviy modaga mansub bo'lgan kiyim-kechaklarni ishlab chiqarishi o'ganilgan.*

**Kalit so'zlar.** Xomashyo, kiyim-kechak, assortiment, antropomorfologik, konstruksiya, gazlama.

Sanoat Xodimlari tikuvchilik materiallaridan samarali foydalanib, yuqori sifatli bejirim buyumlar ishlab chiqarish uchun materiallarni olinishi xossalari, fizik-mexanik ko'rsatkichlari va assortimentlarini yaxshi bilishi kerak. Chunki, tikuvchilik materiallarini xossalari, ularni qanday tolalardan, iplardan tashkil topganligi, o'rilishi, pardozi va boshqa ko'rsatkichlariga bog'liq. Xozirda Namangan viloyatidagi barcha yengil sanoat va tikuvchilik sanoati korxonalari oldiga vazifalar qo'ygan, bunda tabiiy gazlamalardan zamon talabiga hamda jahon standart talablariga javob bera oladigan kiyimlar ishlab chiqarishni maqsad qilib olishgan [2, 3].

O'rta osiyo uchun erkaklar yozgi kiyimlarini ishlab chiqish va tadqiq qilish mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida "inson-kiyim tashqi muxit" sistema omillari elementi sifatida tikuv buyumlarini loyihalashning sistemali yondashuvi asosida quruq issiq muxit uchun erkaklar yozgi kiyimi ishlab chiqarish [4;95-b].

Ko'ylak assortimenti matolari uchun qoldiq ifloslanish ko'rsatkichining me'yoriy darajasi unga ko'ra gigienik xususiyatlar foydalanishga qulaylik muddatlarini uzaytirish va ko'ylak matolarining fizik-mexanik xususiyatlariga ifloslanish ta'sirini baholash usuli ishlab chiqilgan [5;105-b].

Zueva J.L Yangi "o'zaro bog'lovchi" preparatlar bilan bezatilgan paxta va aralash tolali ko'ylakbop matolarning iste'mol xususiyatlari majmuasini o'rgangan [6;89-b].

Yangi tuzilishdagi paxta tolali gazlamalardan tikuv buyumlarining yangi assortimentni va texnologik jarayonlarini mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida zamonaviy konstruksiyalash metodi va yangi assortimentdagi gazlamalardan foydalanilgan holda, erkaklar ko'ylagini yangi modeli va konstruksiyasini ishlab chiqilgan [7;115-b].

B.S.Sokulin notipoviy erkaklar qomatidan yakka tartibda qo'shimcha o'lchamlar olish, konstruktiv qo'shimcha kiritish va ularga kiyim konstruksiya chizmalarini modifikatsiyalash ustida tadqiqotlar olib borgan [8;45-50-b,9;23-b].

A.P.Rogova qomatning tashqi formasini asosiy morfologik ko'rsatkichlari, qomatning risoligi va klassifikatsiyasi, erkaklar va bolalar qomati tipining antropomorfologik klassifikatsiyasi, belli buyumlarni loyihalash uchun o'lchamlar sxemasini tuzish ustida tadqiqotlar olib borgan [10;80-b].

L.P.Golyato, M.A.Izotovalar erkaklar ko'ylaklarini o'lchovlarni olish va dastlabki chizmalarini qurish, turli modeldagi ko'ylaklarga naqshlar ishlab chiqish ustida tadqiqotlar olib borganlar [11;96-b].

#### Xulosa

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili natijasiga ko'ra, ko'ylakbop gazlamalardan kiyim tikishning takomillashtirilgan usuli to'g'risida ma'lumotlar yetarli emas. Shuning uchun dolzarb muammolar yechimiga yo'naltirilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" 2017 yil.
2. Tozalash mashinalari jarayoni va uning samaradorligini aniqlash usullari B Mirzabayev, M Yusupova, M Inoyatova, M Abdurahimova //Conference 20-24,2023.
3. Inoyatova M. et al. ANALYSIS OF CLEANING PROCESS METHODS AND MACHINES //Conferencea. – 2022. – С. 40-43.
4. Камилова Х.Х Исследование и разработка летней мужской одежды для условий средней Азии. Дис. на соиск.учен.степен.канд.тех.наук. МТМЛП - 1978г.
5. Кольцова В.Г "Разработка методов и оценка изменения свойств сорочечных тканей в результате их загрязнения" автореферат диссертации па соискание ученой степени кандидата технических наук.Санкт-Петербург-2000.
6. Зуева Ж.Л. Исследование комплекса потребительских свойств сорочечных хлопчатобумажных и смешанных тканей, отделанных новыми

"сшивающими" препаратами, 1984-г.

7. Ismatullayev N.A “Yangi tuzilishdagi paxta tolali gazlamalardan tikuv buyumlarining yangi assortimentlarini yaratish va texnologik jarayonlarini yaratish va texnologik jarayonlarini ishlab chiqish” magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Namangan 2016-yil.

8. Sh.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2017 yil.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ- 4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

10. . Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285-сон «Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.

11. . Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 февралдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ислоҳ қилишни янада чуқурлаштириш ва унинг экспорт салоҳиятини кенгайтириш чора- тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4186 сонли Қарори.